

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 1:316.77(575.1)

BUXORO HUNARMANDLARINING E'TIQODI VA ULARNING HAYOTDAGI FALSAFIY QARASHLARI**ВЕРА РЕМЕСЛЕННИКОВ БУХАРЫ И ИХ ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ЖИЗНЬ****THE BELIEFS OF BUKHARA ARTISANS AND THEIR PHILOSOPHICAL PERSPECTIVES ON LIFE****Bo'ldiyeva Sobira Rajabovna** 

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Аннотация

Mazkur maqolada Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotga bo'lgan falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada hunarmandlarning diniy-axloqiy qadriyatlar, mehnatga munosabati, ijtimoiy va ma'naviy hayotdagi yondashuvlari o'rganiladi. Shu bilan birga, ularning hayotiy tajribalari va mehnat faoliyati orqali shakllangan axloqiy-ijtimoiy qarashlari, jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonidagi falsafiy ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi orqali insonning ma'naviy barkamolligi, ijtimoiy adolat va axloqiy me'yorlarga bo'lgan munosabatini yoritadi.

Аннотация

В статье рассматривается вера ремесленников Бухары и их философские взгляды на жизнь. Анализируются религиозно-нравственные ценности ремесленников, их отношение к труду, а также подходы к социальной и духовной жизни. Особое внимание уделяется формированию морально-социальных взглядов через жизненный опыт и трудовую деятельность, а также их философскому значению в обществе. Исследование показывает, как вера ремесленников Бухары способствует духовному развитию личности, социальной справедливости и формированию нравственных норм.

Abstract

This article explores the beliefs of Bukhara artisans and their philosophical perspectives on life. It examines their religious and ethical values, attitudes toward labor, and approaches to social and spiritual life. The study highlights how moral and social views are shaped through life experiences and work, and their philosophical significance within society. The research demonstrates how the beliefs of Bukhara artisans contribute to personal spiritual development, social justice, and the formation of ethical norms.

Kalit so'zlar: Buxoro hunarmandlari, e'tiqod, falsafiy qarashlar, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy-ijtimoiy tizim, mehnat faoliyati.

Ключевые слова: ремесленники Бухары, вера, философские взгляды, духовные ценности, морально-социальная система, трудовая деятельность.

Key words: Bukhara artisans, belief, philosophical views, spiritual values, moral-social system, labor activity.

KIRISH

Buxori sharif jahonda o'z hunarmandlari va ular yaratgan mahsulotlari bilan mashhur. Buxoroning jahonga mashhur bo'lgan matolaridan biri kimxobdir. Kimxob matosini to'qigan va unga chiroyli naqshlar solgan hunarmand Muhammad ibn Muhammad al – Buxoriydir. Bu ulug' valiy jahonda Bahouddin Naqshband, Shoh Naqshband nomlari bilan mashhur. U kishi yaratgan ta'limot kasb-u hanarlarining nomi bilan naqshbandiya –deb atalgan.

Hozirga qadar xojagon-naqshbandiya tariqati ta'limot hisoblanadi. Mazkur ta'limotni rivojlantirish va unga amal qilish jarayoni o'tgan asrning 30 – yillariga qadar amalda bo'lgan. Mamlakatda siyosiy tuzumning o'zgarishi, o'z-o'zidan sho'ro tuzumi mafkurasi g'oyalari ilgari surishga qaratildi. Oqibatda islom diniga qarshi kurash boshlandi. Tasavvuf ta'limotini targ'ib qilish, u bilan shug'ullanish mumkin emasdi. Buning oqibatida mullalar qatag'on qilindi, ko'plari mamlakatni tark etdilar. Shunday bo'lishiga qaramasdan, tasavvufdan ayrimlarga yashirin tarzda ta'lim olgan. Shuningdek, bu davrda xalqning ongida asrlar davomida shakllangan xojagon-naqshbandiya ta'limoti yo'qolib ketmadi.

Musulmonchilikning yo'qolib ketishini oldini olish, ma'rifat tarqatishning muhim omili edi. Buning uchun sho'ro davrida Qur'on kitobini yashirincha o'qishga e'tibor qaratildi. Bu borada Abdug'afur Razzoqovning ayrim insonlarga o'rnak bo'lgani, juda ko'plab insonlarni esa ilm yo'lga boshlagani ilmiy manbalar va suhbatlar asosida yoritildi. E'tiqodimizning sofligini saqlab qolishda xizmat qilgan insonlar faoliyatini o'rganish tadqiqotimizning bosh maqsadi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish so'fiylik ta'limotining, xususan, Xojagon-Naqshbandiya an'analari mintaqaning madaniy va ma'naviy hayotiga ta'sirini aks ettiruvchi tarixiy, diniy va etnografik manbalarni o'rganishni nazarda tutadi. Sovet davrida islom ilmlarining yetkazilishi va saqlanishini aks ettiruvchi ilmiy ishlar, arxiv hujjatlari va xotiralarga asosiy e'tibor beriladi. Og'zaki hikoyalar, zamondoshlar bilan suhbatlar ham yozma ma'lumotlarni to'ldiradigan qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, xalqimiz uzoq davrlar mobaynida, qanday tuzum hukmron bo'lishidan qat'iy nazar o'z e'tiqodida mustahkam qoldi. Buning asosiy sabablaridan biri ajdodlarimiz yaratgan ta'limot xojagon-naqshbandiyaning barhayot bo'lib kelganligidir. Mustaqillik yillarida mazkur ta'limot asoschilari yaratgan asarlar tarjima bo'ldi va tadqiqotlar olib borildi.

Jumladan, Abdug'afur Razzoqovning "Tariqatga yo'llanma" kitobi yozildi. Abdulxoliq G'ijduvoniyni "Vasiyatnoma"[2], Xoja Muhammad Orif Revqariyning "Orifnoma" [3], Xoja Ali Romitaniyning "Risolai Hazrati Azizon" [4], asarlari fors tilidan o'zbek tiliga o'girilib, qayta nashr ettirishga muvofiq bo'lindi. Xojagon-naqshbandiya ta'limotini XIX – XX asrlarda faol davom ettirishda ishtirok etgan olimlar to'g'risida to'plam [5] chop etildi. Manbashunos olim Mahmud Hasaniy shogirdlari Razzoqova M. va Qilichova K. [6,7,8,] va Navro'zova G [9] tomonlaridan xojagon ta'limotining asoschisi Xojai Jahon nomi bilan mashhur Abdulxoliq G'ijduvoni haqida asarlar nashr etildi. Shu manbalar asosida tadqiqotimizni olib bordik. Bu davomiylik, ayniqsa, o'zgaruvchan siyosiy manzaralarda xalqning ma'naviy o'ziga xosligini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynagan xojagon-naqshbandiya an'analari doimiy dolzarbligida yaqqol namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyosiy tahlil, matn materiallari mazmunini tahlil qilish, intervyu va ishtirokchilarni kuzatish kabi etnografik usullardan foydalangan holda sifatli yondashuvga asoslanadi. Ushbu qo'shma metodologiya mafkuraviy kontekstni va cheklangan rejimlar ostida diniy va ma'naviy davomiylikni saqlashga hissa qo'shgan shaxslarning hayotiy tajribalarini har tomonlama tushunishga imkon beradi.

Shu munosabat bilan, Buxoroda xojagon-naqshbandiya tariqatida bo'lib kelgan insonlar bilan suhbat qurdik. Ushbu tariqatni noto'g'ri tushunchalardan asrab qolishda hissa qo'shgan naqshbandiya ta'limoti davomchisi Abdug'afur Razzoqov bilan muloqotda bo'ldik. Suhbat asosida aniqlangan ma'lumotlarni tarixiylik va mantiqiylik uslubi asosida tahlil etib xulosalarimizni bayon qildik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

O'tgan asrning 80 – yillari o'rtalarida ham Yetti Pir yoki Buxoroning aziz avliyolari haqida so'z ketganda buni afsona yoki ertak tarzidagi ma'lumotlar deb qabul qilish mavjud edi. Lekin, buxorolik hunarmandlar bilan yaqindan tanishish bu Naqshbandiya tariqati o'zining amaliy hayotga yaqinligi bilan ajralib turishi, ijtimoiy munosabatlar, madaniyat va mehnat madaniyatida ham unutilmaganligini ko'rsatadi. Bunga Attor Hoji nomi bilan tanilgan shaxs misolida tariqatning hayotiy ta'siri tahlil qilinadi:

1980-yillar Buxoroda "Yopiq bozor"da savdo qilgan Attor Hoji ismli inson faoliyati ushbu ta'limotning hayotdagi ifodasini ko'rsatadi. U kishi dorivor va ziravorlar, turli urug'liklarni sotish bilan shug'ullangan. O'sha paytlarda otaxonning yoshi 70 lardan oshgan bo'lib, u kishini hamma kamgap inson sifatida tanir edi. Otaxon bozorga hammadan vaqtli kelar, peshin payti u kishining ayoli, albatta, otaxonga ovqat pishirib olib kelardi. Ular ovqat tanovul qilib bo'lgach, kechki soat 4-5 largacha bozorda savdo qilardilar. Attor amaki savdo qiladigan rasta bilan onam savdo qiladigan rasta tutash bo'lib, ular yonma – yon o'tirishardi. Ular tushlikka bizni ham, albatta, taklif qilardilar. Biz Attor amakini "amaki", ayollarini "oytimullo", deb atardik. Onam tushlikka kelmaguncha ular dasturxonni ochmasdi. Men kichik zehnim bilan ba'zan o'ylab qolardim, ularning farzandlari yo'qmikan, keksaygan chog'larida muhtojlikdanmi, zerikkanidanmi bozor- o'char qilib yuradilar, deb.

2000 – yillarning boshlari edi. Buxoro shahridagi Labi hovuz majmuasida bir davra chollar orasida Attor amakini uchratib qoldim. Buni qarangki, Xizrni uchratgandek bo'ldim. U paytlarda Labi

FALSAFA

hovuz atrofi hozirgidek ovqatlanish shahobchalaridan iborat bo'lmasdan, keksalar suhbatlashib, hordiq chiqaradigan joylar edi.

Otaxon bilan so'rashgach, ayollari vafot etganliklari, o'zlari esa, ishlamayotganliklari, farzandlar va kelinlari o'z yumushlari bilanligidan xabar topdim.

Onangiz yaxshimillar, deb so'radi otaxon, meni tanigach.

Rahmat. O'zingiz yaxshimisiz amaki, Oytimullom yaxshimillar, haliyam ishlayapsizlarmi? - deb so'radim.

Yo'q qizim, xolangiz olamdan o'tdi. Men bozorda o'tirsam kim menga halol luqma olib keladi. Bolalar, kelinlar ovvora.

Amaki, kechirasiz, bolalaringiz borligini bilmasdim. Oytimullom bilan attorlik qilib kun kechirasizlar, deb o'ylardim. Unday emas ekanda?

Yo'q qizim unday emas, biz buxoroliklar, ayniqsa, katta avlod vakillari, mana shu so'rida o'tirgan do'stlarimning hammalari naqshbandiylarmiz.

Naqshbandiylar? Bu so'z menga qiziq tuyuldi. Bu sulolami, dedim.

Naqshbandiya, bu tariqat. Biz tariqatdagi kishilarmiz. Tariqatdagilar qizimi, o'g'limi birovga muhtoj bo'lishi mumkin emas. Halol luqma yeydi, qo'li ishda, ko'ngli Oллоhda bo'ladi. Biz buni unutganimiz yo'q. Bu falsafadan hayratda edim. Oradan necha yillar o'tib otaxonning harakatlarini endi tushunayotgandim. Lekin o'sha paytda meni naqshbandiyadan ko'ra, Buxoro tarixi ko'proq qiziqtirardi. Otaxon bilan shu haqda gaplashdik. Otaxon Labi hovuz atrofidagi qadimiy imoratlar haqida erinmasdan ma'lumot berardi. Bu kishi bozorda oddiy ziravorlar sotadigan Attor amakiga sira o'xshamas, butun bir tarixni ko'z oldimda shakllantirgan olim, faylasuf kishi edi, desam mubolag'a emasdi.

Bundan shunday natijaga erishiladiki, Naqshbandiya tariqatining asosiy falsafasi - insonni ma'naviy va ijtimoiy jihatdan mustaqil shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Naqshbandiya - islomiy tasavvuf yo'nalishidagi eng ta'sirli tariqatlardan biri bo'lib, uning asosiy falsafasi insonning halol mehnati, ma'naviy pokligi va ruhiy mustaqilligiga tayanadi. Tariqatda tarbiya topgan shaxs jamiyatda faol, o'zini va boshqalarni og'irlikka solmaydigan, doimo Allohni zikr qiluvchi shaxs sifatida shakllanishi kerak. Bu qarash: "qo'li ishda, ko'ngli Oллоhda" degan tamoyil orqali yanada aniq ifoda topadi. Ayni tamoyilni amaliy jihatdan namoyon qiluvchi kishilar ko'pincha o'zini jamiyatda oddiy inson sifatida tutsa-da, ularning ichki dunyosi va ma'naviy tayanchlari yuksak bo'ladi. Bu falsafa faqat nazariy ta'limot emas, balki kundalik hayotda amalda tatbiq etiladigan tarzda yashaladi.

Shaxsiy tajriba asosida shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu ta'limot odamni faqat diniy jihatdan emas, balki axloqiy, ma'naviy va madaniy jihatdan ham kamolga yetkazadi.

Tarixga qiziqish va so'fiylikni anglash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, kishining ilm va ma'rifatga bo'lgan munosabatini mukammallashtiradi. Zohirda oddiy insonlar - masalan, bozordagi attor - amalda ma'naviy va intellektual yetakchi bo'lishi mumkin. Natijada, Naqshbandiya falsafasi insonning hayotiy yo'lida nafaqat ruhiy tayanch, balki madaniy va tarixiy ongni shakllantiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan tashqari, tadqiqot shuni ham ko'rsatadiki, oxirgi marta o'tgan asrning 30 - yillarida tasavvuf bilan shug'ullangan olimlarning ko'plari 60-70-yillariga kelib, 70 - 80 yoshlar atrofida bo'lib, ularning tasavvufshunos - islomshunos ekanliklaridan jamiyat bexabar bo'lgan. Buxoroda 60-70 - yillarda yashirin tarzda islom bilimlarini va bularga yondosh ravishda tasavvufni o'rgangan, tasavvufshunos olimlarning davomchisi Abdug'afur Razzoqov hisoblanadi. Domla tasavvufni bilgan, tariqatda bo'lgan inson sifatida yosh bo'lishiga qaramasdan ilm tarqatishni o'z vazifasi deb bilganlar.

Bu haqda O'zbekiston Xalq ustasi, hunarmand - temirsoz usta Shokir ota Kamolov (1946 yilda tug'ilgan) quydagicha ma'lumot beradi: Otam Sharif bobo Kamolov (1918-1982 yy.) Buxoroda inqilob bo'lgandan keyin bor yo'g'i 5 - sinfgacha krill yozuvida savodi chiqqan. Lekin, Sharif boboning eski o'zbek yozuviga ishtiyoqi baland bo'lgan. Otam, otasi ya'ni Kamol bobomning "Dini Muhammadiyni, ya'ni dinimizni unutish mumkin emas", degan gaplarini qulog'iga qo'rg'oshindek quyib olganlar. Shuning uchun Qur'ondan ta'lim olishga ahd qilib, ustoz izlaydilar. Ma'lumki, u paytlar Qur'on o'qish mumkin emas, Qur'ondan ta'lim beradigan ustozlarni topish ham amri mahol bo'lgan.

Otam hunarmand temirchi bo'lsalar, Abdug'afur Domlaning bobosi Ostonaqul ota miskar edilar. U kishi otamning xohishini bilgandan keyin sekin aytadilarki; "Mening nevaram Abdug'afur

yosh bo'lsa ham, Qur'ondan savodi chiqqan, sizga ta'lim berishi mumkin", deb. Otam Qur'ondan ta'lim olishni boshlaganlarida ustozlari Abdug'afur Domla hali Mir Arab madrasasida ta'lim olishni boshlamagan edilar. O'sha paytda Abdug'afur Domla 17 yoshda bo'lib otam 49-50 yoshlarda edilar.

Otam Qur'ondan tahsil olishni boshlashlaridan oldin namoz o'qirdilar, tariqatda edilar. Abdug'afur Domlaga shogird tushib, yoshlari katta bo'lishiga qaramasdan Qur'oni karimdan "Amma", "Taborak" va "Yosin" suralarini o'qib, yodladilar. Buxoroda juda ko'p kishilar G'afurjondan tariqat ilmi va Qur'ondan tahsil olganlar, jumladan o'zim ham Qur'onni tajvid bilan o'qishni, hamda arab tilida harflarni zeruzabarsiz o'qishni o'rgandim.

Buxoro qoidasiga ko'ra, har bir kasb egasi, albatta, naqshbandiya tariqatini davom ettirishi lozim. Nimagaki, biz hunarmandlar orasida shunday gap bor: Qala Nabiyo sallohu alayhi vassalam al Kosibul Habibulloh (hadisidan). Ya'ni kosib Ollohning do'sti. Nimagaki, qalbi Olloh bilan naqshbandiy tariqatiga asoslangan. Bizning ajdodlarimiz temirchilar sulolasi qalbimiz bilan Ollohgga bog'liqligimizni naqshbandiya tariqati vorislari ekanimiz bilan isbotlamoq lozim deb bilamiz va bu qoidaga amal qilamiz.

Shokir ota bilan suhbatlashayotganimizni Abdug'afur domla beixtiyor tinglab o'tirar va bu kun juma bo'lganligi sababli Abdug'afur domlani tog'asining o'g'li miskar Abdurayim Razzoqov Ostonovich va boshqa hunarmandlar ham Bahouddin Naqshband ziyoratgohida, domlani kabinetida yig'ilishib jumaga xutba o'qilishini kutib gurunglashib turgandilar. Shular orasida jo'shib gapirayotgan Shokir ota suhbatni davom ettirar ekan: "Dilba yoru, dastba kor", deyishi bilan xonadagi hunarmandlar Abdug'afur Domla boshchiligidan baravariga "Yoriman parvardigor" iborasini takrorlardilar. Buni qarangga, shu paytgacha "Dilba yoru, dastba korni" bilar edik. Bu qoidaning yana davomi borligini bugun birinchi bor eshitayotgan edim.

Hunarmandlarning naqshbandiya tariqatiga bo'lgan bu qadar chuqur ehtiromi insonda hayrat uyg'otadi. Bundan ta'sirlangan holda naqshbandiya tariqatida bo'lmoqlikning nima afzalligi bor, deb Shokir otaga yuzlanamiz?

Buning afzalliklari juda ko'p. Avvalo tariqatda tahoratda yurasiz pok siz. Qalbingiz Olloh bilan bog'langan tinch siz, xotirjamsiz. Qo'lingiz ishda, lekin qalbingizda Ollohning zikri. Qalb Allohning zikri bilan taskin topishi to'g'risida Alloh taolo marhamat qiladi: "Ogoh bo'lingizki, Allohni zikr etish bilan qalblar orom olur" (Ra'd surasi, 28 – oyat.)

O'tgan asrning etmishinchi yillari boshi edi. U paytlarda Buxoroda faqatgina uchta masjidda namoz o'qishga ruxsat bor edi. Ko'pchilik hunarmandlar Shayx Sulaymonxo'ja imomlik qilayotgan Xo'ja Zayniddin masjidiga juma namozni ado etishga borardik. Keksalardan, Sayid Fayyozov (kosib) namozga kelardilar. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. U kishi besh yil davom etgan urushda, besh yil qatnashganlar. Men Fayyoz bobodan so'rardimki, besh yil urush bo'lgan, besh yil namoz o'qiganmisiz, deb.

Alhamdulillah, namoz o'qiganman. Urush ketayapti urra, deb oldinga otildim. Otishma shiddati bir oz pasayadi. Bu tomonimga qarayman 2-3 ta jangchi halok bo'lgan, ortga qarayman shunday. Xudoga yoqqan tomonim shu ediki, Ollohni bir minut ham esdan chiqarganim yo'q. Men ham shular kabi o'lib ketmaganimning sababi shu janggohda ham namozimni unutganim yo'q. Imkon bo'ldi, degancha namozimni o'qib olardim.

Tahoratni qanday amalga oshirar edingiz?

Cho'ntagimda hamma vaqt bor.

Nima bor edi?

Bir shisha idish. Tahorat qilaman-u namozimni o'qiyman. Safdoshlarim buni payqagan. Fayyozovda araq bor, araqsiz yurmaydi, deb meni komandirga aytib berganlar. Komandir meni chaqirdi. Nima uchun xizmatda araq ichib yurasan, - dedi.

Men tushuntirdim bu araq emas, suv. Tahorat olib, namoz o'qiyman, - dedim. Komandir ko'zlariga yosh oldi. "Duo qil tezroq urush tugasin", deb. Shundan keyin meni oshxonaga povarlikka o'tkazdilar.

Shokir otaning bu hikoyasidan keyin, naqshbandiya yoki tariqatda bo'lmoqlikning yana qanday oliy maqsadlari bor, deb otaxonidan so'rasak ortiqchalik bo'lib tuyulardi. Otaxonning o'zlari esa, buni anglagandek davom etdilar.

Bu yo'lda ustozing bo'lmoqligi nur ustiga a'lo nurdir. Domla G'afurjonni 7 yoshligidan bilaman, Domla sho'ro davrida yosh bo'lishiga qaramasdan islom dinini barqaror qilishga hissa qo'shdilar. Otam va otam kabi yuzlab ustalarga ustozlik qilish mas'uliyatini olib, ularning Qur'oni karimdan nasiba olishlariga sababchi bo'lgan ustozdirlar - deydi Shokir ota. Musulmonchilikni shu kishidan

FALSAFA

o'rganganmiz. Olloh kim? Hech kim bilmaydi. Ota-onasi yo'q. Tug'maydi, tug'ilmaydi. "Qul huvallohu ahad, Ollohu samad yam yalid, valam yulad valam yaku kufan Ahad". Allohni shu suraning sharofati, ta'siri bilan taniymiz.

Musulmon kim? Alloh va payg'ambarning buyruqlariga bo'ysunib, taslim bo'lgan kishi. Musulmon kishi bironvaga tili va qo'li bilan ozor bermasligi kerak. Allohni tanishimizga ko'maklashgan, Qur'ondan savodimiz chiqishiga yordam bergan Domla Abdug'afurni Buxoroni ustuni, deb bilamiz. O'sha paytlarda krilcha ham yozib berardim. Lekin albatta arabchani bilishi kerak o'qib bilishi kerak.

Bugungi kunda Buxoroda qadimgi jome' masjidlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mabodo siz mazkur jome' masjidlariga namoz o'qish uchun kelgan va namoz boshlanishini kutib suhbatlashib turgan yuzlab yoshi ulug' buxoroliklardan, G'afurjon domla haqida so'rasangiz, ular eng avvalo: "U kishi bizning ustozimiz" deb javob beradilar. Kimdir ilmiy salohiyati, kimdir tariqatda mustahkam inson ekanliklari haqida gapiradi. Shokir otaga Buxoroda Abdug'afur domladan boshqa yana qanday ustozlarni bilasiz, deb savol beramiz.

Buxoroda ilmiy, bilimli ustozlar ko'p. Lekin ustoz, deganda faqat bir ustozdan ta'lim olish joiz deb bilaman. Chunki boshqa ustozga o'tsangiz tasavvuf ta'limotini, tariqatni boshqacharoq tushuntirishi mumkin. Ikkilanish paydo bo'ladi. Men bir ustozdan ta'lim oldim. Dunyoqarashimni kengaytirish, fikrlash doiramni mustahkamlash uchun kitob o'qiyman. Olimlar yozib qoldirgan kitoblaridagi barcha fikrlar ustozim Abdug'afur domlaning menga saboq bergan ilmlariga to'g'ri keladi. Men shu kunlarda 80 yoshga yaqinlashib qoldim. Imom G'azzoliyning "kimyoi saodat" kitobini mutoala qilayapman. Kitobning har bir qismidagi ma'no ustozim Domla Abdug'afur fikrlari bilan hamohangdir. Yana shu kunlarda Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf kitoblarini mutoalasi bilan bandman.

XULOSA

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari insonning mehnat, ma'naviyat va iymon uyg'unligiga asoslangan hayot falsafasini ifodalaydi. Ular uchun hunar nafaqat tirikchilik manbai, balki ruhiy poklanish, ijtimoiy mas'uliyat va komillikka eltuvchi yo'l bo'lgan. Har bir hunarmand o'z mehnatini ibodat darajasiga ko'targan, bunyodkorlik orqali jamiyatga naf keltirishni insoniy burch deb bilgan. Shu jihatdan, Buxoro hunarmandlari tafakkurida e'tiqod va mehnat, go'zallik va axloq, moddiylik va ma'naviyat o'zaro uyg'unlashgan yagona falsafiy tizimni tashkil etadi.

Demak, Buxoro hunarmandlari hayot falsafasi insonni mehnat orqali yuksaltirish, yaratuvchanlikda Allohga yaqinlashish va jamiyatda ezgulik urug'ini yoyish g'oyasiga asoslanadi. Bu meros bugungi kunda ham inson qadrini, mehnat sharafini va ma'naviy barkamollikni anglashda beqiyos ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Раззоков А. "Тариқатга йўлланма" Тошкент: "Моварауннахр" 2003 й. 103.
2. Хожа Абдухолиқ Ғиждувоний. Васиятнома / Форс тилидан таржима, кириш, тадқиқ, изоҳлар ва иловалар муаллифлари ҳамда нашрга тайёрловчилар Абдуғафур Раззоқ Бухорий ва Комилжон Раҳимов. "SPLeHDiD IDIA" нашриёти. Тошкент 2021 й. 14 -15. Б. 204 б./
3. Медресе Мир Араб пятывековой дворец просвещения. Сборник. Бухара: "Бухоро", йили 207 б.
4. Ҳасаний М., Раззокова М. Хожа Абдухолиқ Ғиждувоний. "Мозийдан садо" журнали. 2022. -N1. -24-бетлар.
5. Ҳасаний М., Раззокова М. Ғиждувоний илм аҳллари хотирасида. Т.: "Фан", 2003. 50 б.
6. Ҳасаний М., Раззокова М. Хожагон тариқати ва Хожа Хасан Андоқий. Т.: 2003. 47 бет.
7. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия камолот йўли. Т.: "Фан", 2007. 190 б.
8. Садриддин Салим Бухорий. Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд. Т.: Ўқитувчи, НМИУ. 2007.120 б.
9. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия камолот йўли. Т.: "Фан", 2007. 190 б.
10. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд. – Бухоро: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009. 174 б.